

TA'LIM-TARBIYADA SUVGA MUNOSABATNING SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA TARIXIY ASOSLARI

Mamatova Muxarram Saidvaliyevna

Namangan xalqaro tibbiyot texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekologik tarbiyada davlat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishning asosiy omillaridan biri bo'lgan tabiiy nematlar, xususan, suvga bo'lgan munosabatni shakllantirishning ilmiy-nazariy va tarixiy asoslari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy ne'mat, suv, ekologik tarbiya, Qur'oni karim, Avesto, sardoba

НАУЧНЫЕ-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОТНОШЕНИЯ К ВОДЕ В ОБРАЗОВАНИИ

Маматова Мухаррам Саидвалиевна

Преподаватель Наманганского международного медицинского колледжа

Аннотация: В статье представлены научные, теоретические и исторические основы формирования отношения к природным ресурсам, в частности, к воде, что является одним из основных факторов повышения экономического потенциала государства в экологическом воспитание.

Ключевые слова: природные богатства, вода, экологическое воспитание, Коран, Авесто, сардоба.

SCIENTIFIC, THEORETICAL AND HISTORICAL BASIS OF FORMATION OF ATTITUDE TO WATER IN EDUCATION

Mamatova Mukharram Saidvaliyevna

Teacher of the Namangan International Medical College

Resume: This article presents the scientific, theoretical and historical foundations of natural resources, in particular, the formation of attitudes to water, which are one of the main factors in capacity building in environmental education.

Keywords: natural bounty, water, ecological education, Quran, Avesto, Sardoba

Bugun Mustaqil O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad har bir fuqaroning baxtli hayot kechirishi uchun zarur shart sharoitni yaratishdan iborat bo'lib, bu maqsad yo'lida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy va huquqiy sohalarida ulkan tarixiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Barcha sohalarida bo'lgani kabi ekologiya masalasi ham davlat siyosati darajasiga ko'tarilishini mamlakatda O'zbekiston Ekologik partiyasining faoliyat boshlashi va uning qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etishini ta'minlanganida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya tizimida ona tabiatni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash, atrof tabiiy muhit ifloslanishini oldini olish uni musaffoligini ta'minlash ishi kelajagimiz egalari bo'gan yosh avlodni ham ma'naviy ham jismoniy jihatdan sog'lom barkamol vorislar qilib tarbiyalash kabi ezgu amallarga uyg'un holda amalga oshirilmoqda. Ekologiya ta'lim tarbiyadan ko'zlangan bosh maqsad yosh avlodda tabiatga, atrof-muhitga oqilona munosabatta bo'lish, uni e'zozlash, qadrlash, asrash, avaylash-bir so'z bilan aytganda farzandlarimizni ekologik ongini tafakkurini, madaniyati shakllantirishdan ular ko'nglida ona zaminga tabiatga bo'lgan mehrni uyg'otishdan mustahkamlashdan iboratdir.

Insoniyatning yer yuzida mavjud bo'lishi va kundalik hayotida tabiiy in'omlar bilan bir qatorda suvning o'rni beqiyos, chunki u tiriklik manbai, uning naqadar oliy ne'mat ekanligi barchamizga birdek ma'lumdir. Yer yuzining to'rtidan uch qismi suvdan iborat ekanligida ham buyuk hikmat yotadi. Eng qadimgi davlatlar ham qadimgi Misr-Nil daryosi bo'yida, qadimgi Bobil-Dajla va Frot bo'yida, qadimgi Xitoy-Xuanxe va Yanszi bo'ylarida, qadimgi So'g'd va Baqtriya esa-Jayxun va Sayxun daryolari bo'ylarida tashkil topgan. Jonajon o'lkamizning joy nomlariga e'tibor beradigan bo'lsak suvga oid

toponimlar, jumladan Qashqadaryo, Surxondaryo, Oqdaryo, Boʻzsuv, Soymalitosh, Obirahmat, Uchquduq, Oltiariq, Beshariq, Mingbuloq, Shakarbuloq kabilar uchraydi. Shularning oʻzi ham oʻtmishda suvning naqadar muqaddas boʻlganligidan darak beradi.

Ota-bobolarimiz aql-zakovati bilan daryolardan unumli foydalanish, aholini suv bilan ta'minlash maqsadida kanallar qaziganlar, suvdan uzoqroq joylar ham suv bilan ta'minlangan va obod qilingan. Bunga tarixiy-qadimiy obidalar qatoridan joy olgan sardobalarni misol keltirish mumkin. Zardushtiylarda muqaddas sanalgan "suv" ijtimoiy hayotda muhim rol oʻynagan. Avestoning Yasht nomli kitobida yozilishicha kimda-kim iflos idishda (koʻzada) suv olsa, u inson besh darra urilgan, kimda-kim oʻlgan hayvon tanasini suvga tashlasa unga oʻlim jazosi berilgan. Shuningdek, suvga tupirish gunoh hisoblangan. Bu qadimdan insonlar hayotida suv bebaho ne'mat darajasida qadrlanganligidan darak beradi.

"...Odamlar suvga atab qurbonlik berishgan. Masalan, suvga sut va sharbat tomizilgan hamda uning doimiy sofliги uchun idishga barg tashlab turishgan. "Avesto"da suv gavhari rayumand va farrixmand Tintar yulduzida deb ta'kidlagan. [3.-B.80.]

Dunyo xalqlarining madaniyati va savdo-sotiqning rivojlanishida ulkan ahamiyatga ega boʻlgan Buyuk ipak yoʻli mamlakatimizning va umuman Oʻrta Osiyoning bepoyon suvsiz choʻl va sahrolari orqali oʻtgan. Bu yoʻllardan oʻtgan katta karvonlar, harbiy qoʻshinlar, choʻpon va boshqa yoʻlovchilar oldida suvga ehtiyojni qondirish muammosi turar, ayniqsa jazirama yoz oylarida suvning ahamiyati juda oshib ketar edi. Chunki karvon yoʻllaridagi quduqlar suvi qurib qolishi, koʻmilib ketishi va boshqa sabablar tufayli hamma vaqt ham suvga boʻlgan katta ehtiyojni toʻliq qondira olmagan. Shunday vaziyatlarda sardobalar qurilgan. Tarixdan ma'lumki, Movarounnahrda X-XII asrlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq, madaniyat gurkirab rivojlandi, shaharlar yuksaldi, karvon yoʻllari boʻyida sardobalar va shunga oʻxshash inshootlar paydo boʻla boshladi. Taniqli qadimshunos Mixail Massonning yozma manbalarga tayanib guvohlik berishicha, X-asrlarda quyi Qashqadaryo hududida, qadimgi Bezda (hozirgi Kasbi tumaniga qarashli eski Fazli qishlogʻi yonida joylashgan) shahridan Buxoroga oʻtuvchi yoʻlda, Bezdadan bir

kunlik masofada sardobaga o'xshash inshoot-Hovuzi Said bo'lgan. Ming afsuski bu yopiq hovuzning harobalari saqlanib qolmagan. Saqlanib qolingan sardobalar esa XIV-XIX asrlar davomida qurilgan. Sardobalarning barchasi asosan yomg'ir suvi va qor erishidan hosil bo'lgan suv bilan to'ldirilgan. Bunday suvlar maxsus ariqchalar orqali sardoba hovuziga kelib tushgan. Hovuzdagi suvni ifloslanishdan saqlash uchun uning atrofi devor bilan o'ralgan, suvning yerga singishini kamaytirish choralari ko'rilgan, suv bug'lanishini kamaytirish maqsadida bunday hovuzlarning usti yopiladigan bo'lgan. Sardobadagi suvni buzilishdan saqlashda va sardobada havo almashib turishini ta'minlashda sardoba gumbazidagi derazalar va tepasidagi tuynugi katta rol o'ynagan.

Yozma manbalarning dalolat berishicha, sardobalarning aksariyati Abdullaxon II (1557-1598) davrida qurilgan. Chunki XVI asrning 2-yarmida butun Movarounnahr va Xurosonning katta qismini birlashtirib Buxoro xonligini barpo etgan Abdullaxon II faqat harbiy yutuqlari bilangina emas, balki o'zi qurdirgan mingdan ortiq inshootlari-madrasalar, karvonsaroylar, sardobalar, ko'priklari bilan ham mashhurdir. Aytishlaricha, umrining ko'p qismini harbiy yurishlarda o'tkazgan Abdullaxon har bir navkariga doimo bitta pishiq g'isht olib yurishni buyurgan va kerakli joylarda bu g'ishtlardan sardobalar qurdirgan ekan. Shunday ekan bunday sardobalar xalqimiz me'morchiligi tarixini, bu sohadagi yutuqlarni, o'tmishdagi me'moriy uslublarni o'zida aks ettirgan muhim tarixiy manba hamdir. Shuning uchun ham sardobalarni o'z holicha saqlashga va kelajak avlodlarga yetkazishga hissa qo'shish xalqimiz tarixiga hurmat bilan qarovchi barcha kishilarning burchidir.

Dunyodagi har bir narsa-suv ham, yer ham, havo ham, tog' ham, hayvonot va nabotot olami ham Olloh tomonidan o'lchov bilan bir-biriga bog'liq qilib yaratilgan. Qamar surasi (49-oyat)da "Albatta, biz har bir narsani o'lchov bilan yaratdik"[2.-B.409.] deb, barcha ne'matlar qatori suvni isrof qilmaslik, uni tejab ishlatish haqida ogohlantiriladi. Shu yerda Voqi'a surasining 68-70-oyatlarini keltirish mumkin- "Sizlar o'zlaringiz ichadiringan suv haqida hech o'ylab ko'rdingizlarmi, uni bulutlardan sizlar yog'dirdingizlarmi yoki biz yog'dirguvchimizmi? Agar Biz istasak, uni sho'r qilib qo'ygan bo'lar edik. Bas, shukr

qilmaysizlarmi”?! [2.-B.416.] Ulug‘ bobokalonimiz Muhammad Muso al-Xorazmiy ham (782-847yillar) “Bilingki, daryoning ko‘zlari yoshlansa uning boshiga g‘am, kulfat tushgan bo‘ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig tutmanglar” degan. Bu so‘zlar “Kitob surat al-arz” asaridan olingan bo‘lib, unda dunyo xalqlarining tabiiy ko‘nikmalari va tarixiy-huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

Ajdodlarimiz tarixi, ularning turmush tarzi haqida ma'lumot beruvchi muhim manba-"Avesto " da ham suv haqida, uni nihoyatda e'zozlanganligi haqida ma'lumotlar uchraydi.

“Ana shu hayot sharbati yeru ko‘kni bezaydi, bog‘u-rog‘ga aylantiradi.

“O‘t-o‘lanlar hamda mevali daraxtlar ekilgan, suvlari hamisha ravon bo‘lgan zamin eng yaxshi yerdir”.

“Inson-butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman, dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir”.

Inson mazkur ne'matlarni qadrlab, asrab-avaylab, ularga zarar yetkazmasdan, Olloh taolo yaratgan tabiatdagi muvozanatni va jipslikni buzmasdan ulardan foydalanmog‘i lozim. Agar bu bog‘lanish bir oz bo‘lsa ham buzilsa, inson uchun qator muammolar kelib chiqadi, hatto, tabiat va insoniyat halokatgacha borib yetadi.

Hozirgi kunda bu muvozanat insonning noto‘g‘ri aralashuvi tufayli buzilgani va buning oqibatida tabiatni muhofaza qilish borasida ko‘plab muammolarning kelib chiqqaniga guvoh bo‘lib turibmiz. Bunga Orol dengizining hozirgi kunda ko‘lga aylanib qolganligini misol keltirish mumkin.

Texnologiya sohasidagi taraqqiyot, yangi energiya manbalarining kashf etilishi, yangi ma'danlar va kimyoviy moddalarning paydo bo‘lishi, oqibatini o‘ylamay tabiatdagi jarayonlarga aralashuv kabi holatlarning barchasi atrof-muhitni muhofaza qilish borasida nihoyatda tashvishli vaziyatni vujudga keltirmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus ekspertlari fikricha, Orol dengizi havzasida yuzaga kelgan ekologik krizis o‘zining ko‘lami va tabiatga bo‘lgan yomon ta'sir

darajasi bo'yicha yer kurrasi doirasidagi eng yirik ekologik halokatdir. Orol dengizi suvining tez sur'at bilan kamayishi oqibatida Buyuk yevro-Osiyo cho'li hududi markazida 38 ming km kvadrat maydonga ega bo'lgan yana bitta antropogen cho'l paydo bo'ldi. Sobiq Ittifoq hukmronligi davrida qishloq xo'jaligiga zaharli ximik moddalarni jinoyatkorona ko'p ishlatish oqibatida ham juda ko'p miqdordagi tuzlar, zaharli va mutagen ximik moddalar to'planib qolgan. Orolning 1 litr suvida 50 grammdan oshiqroq, ya'ni me'yorga nisbatan 4 hissa ko'p tuz va ximikatlar bor. Buning natijasida Orol dengizidagi baliqlargina emas, balki boshqa tirik mavjudodlar ham halok bo'lmoqda. Natijada Orol o'lik havzaga aylanib qolishi xavfi kuchayib bormoqda. Uning atrofida yashagan 170 hayvon turidan faqat 38 tasi saqlanib qolgan. Ya'ni hayvonlarning 75 foizi o'lib ketdi. Bu maydondagi o'simliklar soni ham kamayib bormoqda. Orol fojiasining jonli tabiatga yomon ta'siri 300 ming km kvadratda ham sezilmoqda.

Ma'lumki, Orol dengizi ustidan kuchli havo siklonlari (shamollari) o'tadi. Buning oqibatida ochilib qolgan tuzlar va ximikatlar faqat Markaziy Osiyo maydonlarigagina emas, balki undan uzoqda joylashgan hududlarga ham tarqalmoqda. Hatto Pomir, Tyan-Shan, Oltoy tog'laridagi muzliklar ustida ham Orol tuzlari va ximikatlari to'planmoqda. Ekologik muhitning mutagen faktlari tirik mavjudotning irsiyatiga, ayniqsa, odam irsiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus ekologik muhitni saqlashga bag'ishlangan bo'limi bilan birgalikda tabiatni muhofaza qilishning butun dunyo strategiyasi ishlab chiqildi va unda ko'rsatilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda suvga doir munosabatlar aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanish, suvni bulg'anish, ifloslanish, kamayib ketishdan saqlash, suvning zararli ta'sirining oldini olish, suv ob'ektlari xolatini yaxshilash tadbir va tartib-qoidalari, shuningdek suvga doir munosabat sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning huquqlari qonun bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish mustaqilikning ilk kunlaridanoq davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Buning asosiy qonunimiz konstitutsiyada “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburlarlar”[1.-B.18.] deb e’tirof etilishi bilan ham izohlash mumkin.

Shuningdek, “yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boyliklardir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”, [1.-B.19] deb ko‘rsatilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, suv uzoq tarixiy davrda ham bugungi kunimizda xam insoniyatni tiriklik manbai bo‘lib, jamiyatni ham iqtisodiy ham ma'naviy yuksalishida o‘ziga hos o‘ringa ega ekanligi bilan ahamiyatlidir. Bir ma'noda insonni poklikka undasa yana bir ma'noda u tabiatda yaratish va yashnatish omili hamdir. Bu esa suv-insoniyatning doimiy ehtiyoji, uni asrash esa o‘lmas qadriyat ekanligini ifoda etadi.

Zero, biz tabiiy ne'matlarni ajdodlardan meros qilib emas, balki kelgusi avloddan qarzga olganmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –Toshkent: O‘zbekiston 2023.
2. Qur’oni karim. Alouddin Mansur tarjimasi . Cho‘lpon. 1998.
3. Fayzullayev T. va boshqalar taxriri ostida “Sharq va G‘arb: zardushtiylik va “Avesto” ning G‘arb dunyoqarashiga ta'siri” xalqaro ilmiy nazariy seminari materiallari //- Namangan-2001.